

## KICHIK MAKTAB O'QUVCHILARIDA BILISH JARAYONLARINING O'SISHI

SH.T.Normo'minov

SamDU, magistr

### Annotatsiya

Maqolamizda kichik maktab Yoshi o'quvchilarida bilish jarayonining o'sish xususiyatlari haqida atroflicha tahliliy ma'lumatlar berildi. Shuningdek, xotirani rivojlantirishga va shakllantirishga oid mulohazalar qilindi. Xotiraning rivojlanishida yosh masalasi muhim ko'rsatkich ekanligi dalillar asosida isbotlanishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, kichik yosh, xotira, ruhiy holat, tajriba, ahloq, tartib, muddatli xotira, o'sish.

Kichik maktab yoshi davri 1-4 sinf o'quvchilarining yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Albatta, bolaning o'sishi, uning ruhiyati va ongining taraqqiyoti, jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishi ayrim qonuniyatlarga asoslanadi. Mazkur davrda bola ruhiyatida muayyan o'zgarishlar yuzaga kelishini kuzatish mumkin. Kichik maktab davrida bolaning birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi unda o'quv faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. Bolani birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan unda bir qator ruhshunosik qiyinchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Bu davrni bola uchun ta'sirchan, qiziqarli o'tkazish har tomonlama yaxshi. O'quv faoliyati bolaning bilish jarayonlarining ixtiyoriy va barqaror xususiyatlarini, aql sifatleri va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishida ruhshunosik qiyinchiliklarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiq lashtiriladi. Avvalo, kichik yoshdagi o'quvchilar o'qish, yozish, hisoblash malakasiga ega bo'lishlari, ona tili, tarix, arifmetika, geografiya, tabiyatshunoslik fanlaridan, shuningdek geometriya asoslaridan muayyan hajmda bilimni olishlari lozim. Shu asosda bilim jarayonlarining taraqqiyoti, aqliy rivojlanishi yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy rivojlanish uchun qobiliyat tarkib topadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari kengayadi, o'quvchida o'qishga bo'lgan ma'suliyatli munosabat tarkib topib boradi.

Ruhiy-axloqiy rivojlanish va xatti-harakatlar qoidalarini o'zlashtirish jarayoniga kichik maktab yoshidagi davrda axloqiy xatti-harakat poydevori qo'yiladi, axloqiy rivojlanish va xatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi. Shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari 1-sinfdan 4-sinfgacha bo'lgan davr mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi. Ushbu yoshning oxirgi davrlariga kelib axloqiy bilimlar tasavvurlar va mulohazalari sezilarli darajada boyiydi, ancha anglangan bo'ladi, turli tushunchalarga ega bo'ladi, umumlashadi. 1 va 2 sinf o'quvchilarining axloqiy mulohazalari o'z xatti-harakatlari tajribasida va o'qituvchilar hamda ota-onalarning aniq ko'rsatmalari va tushuntirishlariga asoslanadi. 3-4 sinf o'quvchilari esa axloqiy mulohazalarida o'z xatti-harakatlari tajribasiga va kattalarning ko'rsatmalariga asoslanish bilan boshqa kishilarning tajribalarini ham analiz qilishga intiladilar. 7-8 yoshdagi o'quvchilar to'g'ridan to'g'ri kattalarni, jumladan, o'qituvchining ko'rsatmalarini kutib o'tirmay, ijobiy axloqiy ishlarning qanchasini o'z tashabbuslari bilan amalga oshiradilar.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda namayon bo'ladigan xarakter xususiyatlarini, xatti-harakatlarni tahlil qilar ekanmiz, hamma vaqt ham munosabatlar amalga oshiriladigan barqaror va mustahkam xatti-harakat formalari deb bo'lavermaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda xarakter jiddiygina tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xarakteri, xatti-harakatlari o'zining beqarorligi va qarama-qarshiligi bilan farq qilishi mumkin. Shu munosabat bilan ba'zan ulardagi o'tkinchi ruhiy holatlarni xato ravishda hislatiga qo'shib yuborish mumkin.

Maktab ta'limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan, bilishga bo'lgan qiziqish, atrof-olamdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq bilimga bo'lgan tashnalik va intellektual qiziquvchanlik juda sezilarli ravishda rivojlanadi. Kuzatuvlarga qaraganda, qaraganda dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg'iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar bo'ladi. Undan keyin esa sabablarini, qonuniyatlarini, hodisalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar 1-

2 sinf o'quvchilarini «bu nima?» degan savol qiziqтира birmuncha kattaroq yoshdagi o'quvchilar uchun «nima sababdan», «qanday qilib?» degan savollar tashkil bo'lib qoladi. O'qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o'qishga, qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o'qishga, bundan ham so'ngroq qiyin bo'lmagan ilmiy fantastik va sarguzashtlar haqidagi kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi. Texnikaga, ayniqsa, hozirgi zamon texnikasiga, raketalariga, eng yangi tipdagi avtomobil va samolyotlarga bo'lgan qiziqish tez tarkib topadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Biroq shuni ta'kidlab o'tish lozimki, har qanday mehnat ham shaxsda ijtimoiy jihatdan qimmatli hislatlarini tarbiyalayvermaydi. Mehnat o'z shaxsiy manfaati uchun bajonudil va ko'p mehnat qilishga bo'lgan xudbinni ham tarbiyalaydi. O'quvchilar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ular mehnatsevarlikni tarbiyalashga xususan zo'r e'tibor berish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun bo'lgan ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar-o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati Kichik yoshdagi o'quvchilarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Ushbu yoshdagi o'quvchilar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Ushbu yoshdagi o'quvchilarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarning yuzaga kelish va mustahkamlanish davri deb hisoblash mumkin. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy ruhshunosik muhit yaratish lozimki, unda bolaga biron bir ma'sul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilishiga imkon yaratib berish lozimdir. Ana shu his bolada keyinchalik mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltirishda asosiy rol o'ynashi mumkin.

Maktabga kelish oldidan bola o'z hayotining eng muhim davriga, ya'ni maktab davriga tomoniga qo'yiladigan turli tuman talablarni bajarishga, boshqacha qilib aytganda, ta'lim olishga hali ham jismoniy, ham ruhshunosik jihatidan tayyor bo'lmaydi. O'quvchilarning kichik maktab yoshidagi davri 7 yoshidan 11 yoshgacha boshlang'ich sinflarda o'qishi yillariga to'g'ri keladi. Bog'cha yoshidagi bolalik davri tugadi. Bola rasm chizish mashg'ulotlarida melg' yoki plastinkadan narsa yasash ishlarida va eng oddiy ko'rish yasash mashg'ulotlarida yaqqol namayon bo'ladi. Bola o'z xotiraini boshqarishda o'z xotiraini mustaqil tashkil qilishida bir muncha tajriba xosil qilgan bo'ladi. 7 yosh bolaning so'z xonasi ham yetarli darajada boy va mavhum tushunchalar miqdori ancha yuksak bo'ladi. Bola eshitganlarini yetarli darajada keng tushunadi. Soha mutaxassislarining yaratilgan tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, yaxshi tashkil qilingan ta'lim 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradi. Ular sodda mashqlar va masalalarni tuza oladigan hamda yecha oladigan bo'ladi. Ular burch hissi va javobgarlik hissi endigina namayon bo'la boshlaydi. 7 yoshli bola o'z hissiyotlarini boshqarish tajribasini ega bo'larning hammasi maktab ta'limiga tayyorgarligi muhim shartlaridan biri yuqorida aytganlarining hammasi bolaning maktab ruhshunosliksi jihatidan tayyor ekanligi obyektiv tamoyillarga maquldir. Boshlang'ich sinflarda pedagog ishlarni tashkil qilishda Kichik yoshdagi o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlarini ijtimoiy taraqqiyot darajasini ham hisobga olish lozim. D.N. Levitov to'g'ri qayd qilib o'tganidek hech bir maktab yoshida salomatlik holatiga va ijtimoiy taraqqiyotiga kichik maktab yoshidagi maxkam bog'liq bo'lmaydi. Bola 7 yoshdan 11 yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Bo'yi va og'irligi organizmning tiniqligi o'pkasining

hayotiy hajmi ancha tekis va propalg'tsional rivojlanadi. Ruhshunos L.S.Slavinaning ko'rsatishicha boshlangich sinfda bilish faolligi yetarli darajada bo'lmagan o'quvchilar uchrash mumkin.

Bunday o'quvchilar intiluvchan jihatidan normal rivojlangan bo'ladi. Bu rivojlanish ularning o'yin va amaliy faoliyatlarida namayon bo'ladi. Faol fikr qilish ular uchun xarakterlidir. Bunday o'quvchilariga o'qituvchi alohida xotira bilan qarashi kerak. Ularning fikr qilishi faoliyatiga odatlantirib ularni yutuqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi dastlabki paytlarda o'quv vazifalarini bajarishni o'yin va amaliy faoliyatni bilan bog'lab olib borish kerak.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiq lashtirilgandir. Avvalo, o'quvchilar o'qish, yozish, va hisoblash malakasini egallashlarini, arifmetika, ona tili, tarix, geografiya va tabiyatshunoslikdan geometriyaning elementar asoslaridan ancha katta hajmda bilimni ortirishlari kerak. Ikkinchidan, bolaning bilim darajasi va bilish qiziqishlari kengayadi hamda rivojlanadi. Uchinchidan, bilim jarayonlarininng taraqqiyoti, aqliy rivojlanish yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy faoliyat uchun qobiliyat tarkib topadi va nihoyat, o'qishga bo'lgan yo'nalish o'qishga nisbatan mas'uliyatli munosabat yuzaga keladi. Bunda quyidagilar muhim hisoblanadi:

Idrok. Kichik yoshdagi o'quvchilar idrokining o'tkirligi sofligi bilan farq qiladilar. O'quvchilarning idroki o'ziga xos bilimga tomoshabin tariqasida berilganlik bilan farq qiladi.

Xotira. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotiraning asosiy hususiyatlari ixtiyoriy zaifligidadir. Kichik maktab yoshida xotirani iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Xotira. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira ta'limining ta'siri bilan ikki yo'nalishda rivojlanadi. So'z mantiq xotirasining va ma'nosiga tushunib xotirada saqlab qolishning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Birinchi signal tizimi faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qoida va tushuntirishlarga qaraganda aniq ma'lumotlarni, voqeliklarni, qiyofalarni narsalarni va dalillarni yaxshi tez esda olib qoladigan va xotiralarida mustahkam saqlaydilar.

Xayol. Xayol muhim ruhiy bilish jarayonlaridan biridir. Xayolning faoliyatsiz o'qituvchi gapirayotgan va darslarda yozilgan narsalarning tassavvur qilishni hamda ko'rgazmali obrazlar bilan ishlashni bilmay turib, hech qanday o'quv predmetni chinakkam o'zlashtirishi mumkin emas.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining xayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan bir qatorda, bevosita taassurotlar (muzey, ko'rgazmalarni borib ko'rish, kinokartinalarni ko'rish, sayohatlarga borish, maktab yer uchastkasida ishlash va boshqalar) ham xayolni rivojlantiradi.

Aslida, kichik maktab yoshidagi davr shaxsning taraqqiyotida hal qiluvchi siljishlar davri bo'lmasa ham, bunday davr o'smirlik davridir, shunga qaramay, bu davrda shaxsning tarkib topishi yetarli darajada sezilarli yuz beradi. Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, maktabga kirish bolaning hayotida burilish momenti hisoblanadi. Kattalar (o'qituvchilar) va tengdoshlari (sinf doshlari) bilan yangi munosabatlar maydonga keladi. Bolaga butun bir jamoaviylik sistemasiga (umum maktab, sinf) qo'shiladi. O'qituvchi o'z oldiga bir qator jiddiy talablarni qo'ygan, o'qishga - yangi faoliyat turiga qo'shilish o'quvchining o'z hayotini qat'iy tarzda tashkil qilishga, qoida va rejimga bo'ysunishga majbur qiladi. Bularning barchasi atrof-olamdagi voqeylikka, boshqa kishilarga, jamoaviy ta'limga va uning bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarga nisbatan yangi munosabatlar tizimining tarkib toptirishga va mustahkamlashga qat'iy ravishda ta'sir qiladi, xarakterni, irodani tarkib toptiradi, qiziqishlar doirasini kengaytiradi, qobiliyatlar taraqqiyotini belgilaydi.

Ruhiy-axloqiy rivojlanish va xatti-harakatlar qoidalarini o'zlashtirish kichik maktab yoshidagi davrda axloqiy xatti-harakat poydevori qo'yiladi, axloqiy rivojlanish va xatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi. Shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari 1-sinf dan 4-sinf gacha bo'lgan davr mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi. Ushbu yoshning oxirgi davrlariga kelib axloqiy bilimlar tasavvurlar va mulohazalari sezilarli darajada boyiydi, anchagina anglangan bo'ladi, turli tushunchalarga ega bo'ladi, umumlashadi. 1- va 2- sinf o'quvchilarining axloqiy mulohazalari o'z xatti-harakatlari tajribasida, o'qituvchilar hamda ota-onalarning aniq ko'rsatmalari va tushuntirishlariga asoslanadi. 3-4 sinf o'quvchilari esa axloqiy mulohazalarida o'z xatti-harakatlari tajribasiga va kattalarning ko'rsatmalariga asoslanish bilan boshqa kishilarning tajribalarini ham tahlil qilishga intiladilar. Bu davrda adabiyotlarni o'qishda, o'quvchilar uchun chiqarilgan kinofilmlarni ko'rish ancha katta ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy xatti-harakatlar ham xuddi shunday tarkib topadi. 7-8 yoshdagi o'quvchilar to'g'ridan-to'g'ri kattalarni, jumladan, o'qituvchining ko'rsatmalari bilan ijobiy bo'ladigan ko'rsatmani kutib o'tirmay, ijobiy axloqiy ishlarini amalga oshiradilar.

Xarakter. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda namayon bo'lgan xarakterologik xatti-harakatlarni hamma vaqt ham munosabatlar amalga oshiriladigan barqaror va mustahkam xatti-harakat formalari deb bo'lavermaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda xarakter jiddiygina tarkib topa boshlaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilar xarakteri, xatti-harakatlari o'zining beqarorligi va qarama-qarshiligi bilan farq qilishi mumkin. Shu munosabat bilan ba'zan ulardagi o'tkinchi ruhiy holatlarni xato rivishda xislatiga qo'shib yuborish mumkin. N.D.Letovitovning tajribalarida aks etishicha 1-sinf o'qituvchisi o'z o'quvchi qizlaridan birini har qanday ishni oxirigacha yetkaza oladigan, qiyinchiliklarni yenga oladigan matonatli qiz deb hisoblar edi. Biroq tajribali ruhshunos tomonidan o'tkazilgan kuzatishdan bu xususiyat ma'lum sharoitdagina maydonga keladigan vaqtinchalik, ya'ni o'tkinchi ruhiy holat ekanligi ma'lum bo'ldi. O'quvchi qizdagi xatti-harakatni ko'rganda va dugonasining faoliyati muvaffaqiyatli bo'lganda namayon bo'lgan muvaffaqiyatsizlik qizchani izdan chiqarib qo'ygan.

Qiziqishlar. Maktab ta'limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan, bilishga bo'lgan qiziqish, atrof-olamdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq bilimga bo'lgan tashnalik va intellektual qiziquvchanlik juda sezilarli ravishda rivojlanadi. Ruhshunoslarning ta'kidlariga qaraganda, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg'iz hodisalarga nisbatan qiziqishlar bo'ladi. Undan keyin esa sabablarini, qonuniyatlarini, hodisalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar 1-2 sinf o'quvchilarini «bu nima?» degan savol qiziqitirsa, birmuncha kattaroq yoshdagi o'quvchilar uchun «nima sababdan», «qanday qilib?» degan savollar tashkil bo'lib qoladi. O'qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o'qishga, qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o'qishga, bundan ham so'ngroq qiyin bo'lmagan ilmiy fantastik va sargo'zashtlar haqidagi kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi. Texnikaga, ayniqsa, hozirgi zamon texnikasiga, raketalariga, oy stantsiyalariga, lunaxodlarga, eng yangi tipdagi avtomobil va samolyotlarga bo'lgan qiziqish tez tarkib topadi. Qishloq maktablarining 3-4-sinf o'quvchilari qishloq xo'jaligiga nisbatan sezilarli darajada o'z qiziqishlarini namayon qila boshlaydilar. Shuning uchun o'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga nisbatan munosabatlarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutish zarurdir. Eslatilganidek, xususan, o'qituvchining tegishli bahosi bilan aniqlanadigan bolaning o'qishidagi o'z muvaffaqiyatlarini, qo'lga kiritgan yutuqlarini ichdan his qilish katta xususiyatga egadir.

Badiiy-estetik rivojlanish. Kichik maktab yoshidagi davrda o'quvchilar badiiy-estetik rivojlanishda katta imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'quvchilar, odatda, rasm chizishga, loy yoki plastilindan narsa yasash ishlariga, ashula aytish va musiqaga juda qiziqadilar. Bunday faoliyatni to'g'ri tadqiq qilish bir tomondan o'quvchilarda estetik hislarning rivojlanishiga yordam beradi, ikkinchi tomondan, tegishli qobiliyat komponentlarining rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Biroq shuni ta'kidlab o'tish lozimki, har qanday mehnat ham shaxsda ijtimoiy jihatdan qimmatli xislatlarini tarbiyalayvermaydi.

O'quvchilar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga zo'r ehtibor berish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun bo'lgan ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Ayshtish joizki, yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashkari boshqa faoliyatlar ham o'quvchi shaxsiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik yoshdagi o'quvchilarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Ushbu yoshdagi o'quvchilar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida o'quvchilardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiyki ruhshunosikda ehtiyoj hisblanib, bu motiv ularga kuchli hissiy ta'sirni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha

davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar kattalarning u haqidagi fikr va baholariga qarab o'zlariga o'zlari baho beradilar. O'quvchining o'ziga o'zi beradigan bahosi, asosan, to'g'ridan to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha: yuqori, adekvat, past bo'lishi mumkin. Ushbu yoshdagi o'quvchilarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarining yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topish bilan bir qatorda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'z qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bolada haddan ziyod ishonuvchanlik, itoatkorlik xususiyati bo'lsa, unda asta-sekinlik bilan bo'ysinuvchanlik, mustaqil bo'la olmaslik xususiyati mustahkamlana boradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shunday bir ijtimoiy ruhiy muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron- bir ma'sul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

Albatta, 7-11 yoshli davrda o'quvchilar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolani o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda o'quvchilar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar.

Bolani o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib o'quvchilar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz-tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishiga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulq-atvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda o'rtoqlar va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi.

5-6 yoshli davrida o'quvchilarning ko'zga tashlangan xususiyatlari 4 yil davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi hamda o'smirlik davrining boshlariga kelib juda ko'p shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. O'quvchilarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rinadi. Bu davrda o'quvchilarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ko'pchilik boalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yosh davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarning jadal rivojlanishiga olib keladi.

Ushbu yoshdagi o'quvchilarda idrok, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilar ruhiy rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishishi mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Ushbu yoshdagi o'quvchilar soatlab yolg'iz holda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi. Bu narsa ana shuning uchun muhimdirki, Kichik yoshdagi o'quvchilarning mehnat faoliyatida shaxsiy motivlar aniq namayon bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchisi o'zi uchun zarur bo'lgan narsani katta qunt bilan berilib tayyorlaydi.

Tajribalardan ayon bo'ladiki, kun tartibi bilan bog'liq qiyinchiliklar ham mavjud. O'quvchi dars va uy vazifalarini bajarishi bilan bog'liq yangi kun tartibiga o'rganishi lozim. Buning uchun kattalar bolaga qo'yiladigan yangi talablarni tushuntirishlari va ularning bajarilishini nazorat qilishlari lozim.

Muloqot bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lib, ular o'qituvchi bilan, sinfdoshlari bilan yangicha munosabatlar o'rnatilishi zaruriyati bilan bog'liqdir.

Ta'limning butun mazmuni boladan ixtiyoriy jarayonlarni: ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy idrok, xotirani rivojlangan bo'lishini taqozo qiladi.

O'quvchi mustaqil fikr yuritishi, vazifalarni mustaqil bajarishi lozim. Bu xususiyat hamma o'quvchilarda ham birdek rivojlanmagan. Bola o'z burchini anglagan bulishi, yaxshi o'qish va yaxshi intizomga ega bo'lishi, intizom qoidalariga rioya qilishi, uyga berilgan vazifalarni bajarishi uning burchi ekanligi his qilishi kerak. Xotira e'tiborni o'qituvchi aytganlariga qaratish, uni idrok qilib Xotirada qoldilish va kerak vaqtda ularni boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lmogi talab qilinadi. Bunday talablarga javob qaytarish so'zsiz o'quvchiga qiyindir. Bunday qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yenga bilish asta-sekin va muntazam o'qish jarayonida materialni osondan-qiyinga, oddiydan murakkabga tushuntirish, o'quvchilarni o'qish faoliyatiga qiziqtirish, darslarni qiziqarli, hissiy va obrazli bayon qilish orqali bartaraf qilinadi.

Bu qiyinchiliklarni o'quvchilar o'quv yilining o'rtalarida his qila boshlaydilar. Kichik yoshdagi o'quvchilarida odatda maktabning tashqi atributlariga qiziqish mavjud bo'lib, o'quv materialining mazmuniga qiziqish esa zaif shakllangan. Shu sababli, o'quvchida o'qishga qiziqish yo'qolishi, maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga faol intellektual harakatlarni talab qiladigan masalalar berish, oddiy yodlashni talab qiladigan masalalarni iloji boricha kamaytirish kerak.

O'quv situatsiyalarida o'quvchilar aniq amaliy masalalari yechish yoki tushunchalarni o'zlashtirishning umumiy usullarini o'zlashtirishlari kerak. O'quvchi ularni shunday muammoli vaziyat sharoitga qo'yish kerakki, unda o'quvchilar bu usullarni topa olishlari zarur.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Borovaya, G.I. Kichik maktab yoshi / G.I. Borovaya va boshqalar; Ed. - komp. Senko V.G. - 1989. - 86 b.
2. Buyurtma. "5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda kognitiv qobiliyatlarni yaxshilash", Moskva - Voronej, 1999.
3. Buyurtma. "Kichik maktab o'quvchilarining aqliy faoliyatidagi farqlar", Moskva - Voronej, 2000.
4. Buyurtma. 6-7 yoshli bolalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish / A.Z. Zak. - M.: Yangi hayot, 1996 - 285-yillar. com Vol. 2 No. 4. Culture, 1(3), 452-456.
5. Vohidov M. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. - T., 1970